

## O‘QUVCHILARNING HUQUQIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Azimova Gulzira Muxitdinovna**

Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 20-umumta’lim  
maktabi huquq fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ma’naviy qadriyatlarimizni bugungi avlod mulkiga aylantirish, ajdodlarimizning an’ana va tajribalarini o‘rganish asosida mustaqil fikrlaydigan, el-yurt sha’ni va shuhratini ko‘klarga ko‘taradigan mutafakkirlar ilmini o‘rganish ahamiyati haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** ajdod, innovatsiya, ahloqiy qarashlar.

Yurtboshimiz tomonidan “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim” - deb aytilgan fikrlar mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan keyingi o‘tgan yillar mobaynida komil inson tarbiyasiga jiddiy e’tibor berilayotganligi va buning uchun esa barcha shart - sharoitlar yaratilib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish jarayoni ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning diqqat markazida turgan muhim va dolzarb vazifalaridan biriga aylangani bizga ma’lum.

O‘zbekiston xalqining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish; boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va mahsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalarni bajarish bugungi komil inson tarbiyasi hamda zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirish har qachongidan ham muhim va ustuvor ekanligini anglab turibmiz.

Buyuk bobokalonlarimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan komil inson tarbiyasi haqidagi ilmiy-ma’naviy meroslar bugungi zamonaviy ta’limimizni

yuksaltirishga va undan ijodiy o‘zlashtirishimizga asos bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berib tarbiya jarayonlarini, vositalarini talablarini ko‘rsatadi va ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olish kerakligini aytadi.

Milliy qadriyatlar negizida ham odob-ahloq va huquqiy madaniyat qoidalari mujassam ifodasini topgan. Insoniyat tarixida huquq normalari yaratilgunga qadar ijtimoiy tartibga solishning elementi sifatida odob-ahloq muhim o‘rin tutgan. Insonlar ongida huquqiy xulq-atvor mezonlariga nisbatan odob-ahloq qadriyatlari ustuvorlik kasb etgan. Odob-ahloq qadriyatlari xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi. Ahloqda hal qiluvchi mezon sifatida odob talablari mujassamlashgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida yangiliklarni amalga oshirish uchun milliy an’ana va qadriyatlar ijtimoiy - madaniy hayotimizdagi uslublarining vorislik rishtalari uzib yuborilmasligi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zamonaviy ta’limimizning maqsadi yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan komil insonlarni tarbiyalash bo‘lar ekan, ma’naviy qadriyatlarimizni bugungi avlod mulkiga aylantirish, ajdodlarimizning an’ana va tajribalarini o‘rganish asosida mustaqil fikrlaydigan, el-yurt sha’ni va shuhratini ko‘klarga ko‘taradigan, vatani taraqqiyoti uchun olijanob maqsadlar sari intiladigan, “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” shiori ostida vatan ravnaqi uchun kurasha oladigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish ta’lim sohasida ishlaydigan biz pedagoglarning oldimizda turgan, zimmamizga yuklatilgan oliy vazifadir. Yuqoridagilarga asosan bayon etish lozimki, yangi jamiyat fuqarolarining odob-ahloq va huquqiy madaniyat qoidalarini har bir shaxs qalbi va ongiga singdirish milliy o‘zini anglashda muhim ahamiyat kasb etishi barobarida mustaqilligimizni mustahkamlashga va har bir fuqaroning qalbi va ongiga singdirishga eng muhimi, huquqiy faol jamiyat a’zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qodirova F. Pedagogik kadrlarga ilg‘or pedagogik texnologiyalar haqida. Metodika. Til va adabiyot jurnali. 2001-y. – B. 101.
2. Temur tuzuklari. Toshkent.G‘.G‘ulom nashriyoti 1991. – B. 17.
3. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU. 2000. – 52.b.